

QADIMGI PESHKU TARIXI VA UNING TURISTIK IMKONIYATLAR

Izzatova Bahor Jo'rabek qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakultet tarix ta'lim yo'nalishi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20579985>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro vohasing ajralmas qismi bo'lgan Peshku tumaning qadimiy ildizlari, uning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan ABU BAKR NARSHAXIYning "Buxoro tarixi" asarida tilga olingan "Zandanacha" matolarning shonli o'tmishi va buyuk mutaffakir Ibn Sino tug'ilgan Afshona qishlog'ining madaniy merosi yoritilgan. Shuningdek, maqolada hududning bugungi kundagi turistik imkoniyatlari va salohiyati haqida qisqacha aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Peshku, Romitan, Afshona, pillachilik, Tolib G'oyibov, Ibn Sino, kollej, qo'riqxon, tuman, kolxoz, Zandana, Abu Bakr Narshaxiy, Buxoro, Ziyorat turizm, Madaniy meros.

"Peshku,, toponimi kelib chiqishiga ko'ra fors-tojik tillariga borib taqaladi. Mahalliy toponimistlarning fikricha, ushbu atama „Peshi kuy“ — „Katta yo'l ustidagi joy“ yoki „Peshi ko'h“ — „Tog' oldi“ ma'nolarini anglatadi. Tarixan bu nom dastlab yirik karvon yo'li yoqasida joylashgan qishloqqa nisbatan qo'llanilgan.

Peshku tumani Buxoro viloyatining asosiy va ajralmas tarkibiy qismi bo'lganligi tufayli, bu go'sha o'tmishini O'zbekiston xalqlari tarixi, jumladan, Buxoro tarixidan ajratib bo'lmaydi.

Biz tarixdan bilamizki O'rta Osiyoda joylashgan O'zbekiston nafaqat O'zbekiston balki Buxoro shahrining o'zi chuqur tarixga ega. Buxoro shahrida joylashgan Peshku tumani bu tarixdan mustasno emas. Buxoro shahrida joylashgan Peshku tumanini qadimgi tarixini o'rganishimiz uchun bizga Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobi juda katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu kitobda Peshku tumanidagi qishloqlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Masalan o'zining mashhur "zandanacha" matolari bilan dunyoni lol qoldirgan Zandana qishlog'i haqida keltirib o'tilgan. Abu Bakr Narshaxiyning ma'lumotlariga ko'ra Zandana qishlog'i katta qal'aga, ko'pgina bozor joylariga va jome masjidiga ega bo'lgan. Bu yerda har juma kuni insonlar namoz o'qib va savdo ishlarini ham olib borganlar deb ma'lumot beradi Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida. Bu yerda to'qib chiqariladigan narsa bo'zni "zaniychi" yani Zandana qishlog'ida to'qib xildagi bo'z uchun Buxoro shahridagi Peshku tumaniga kelib savdo qilganlar. Barcha ulug'lar va hukmdorlar undan kiyim qilganlar va ipaklik kiyim bahosida sotib olganlar. Aynan Afshona qishlog'ida tug'ilgan buyuk bobokalonimiz Ibn Sino haqida so'z yuritmasak bo'lmaydi.

Ushbu ulug' zotning Peshku tumanining Afshona qishlog'ida tug'ilib o'sganligidan biz doim faxrlanib yurishimiz kerak. Chunki ushbu zotni nafaqat Osiyoda balki butun Yevropada tanishadi va tan ham olishadi. Aynan Yevropalik olimlardan ba'zilar uni nihoyatida yuksak baholab, doimo e'zozlab madh etishgan. "Uning adabiy merosi juda ulkan edi, - deb yozadi Donald Guthrie". Hattoki professor Edward Browne uni Aristotel bilan bir qatorda qo'yadi.

1471-yilda nashr etilgan Padua universiteti professori Ferrari darsligida Ibn Sino 3000 marta tilga olingan bo'lsa, Galen 500 marta, Gipokratning atigi 140 marta tilga olinganligidan ham ko'rishimiz mumkinki Ibn Sinoning Yevropada qanchalik obro'-e'tiborga ega ekanligidan dalolat beradi.

Uning buyuk merosi faqatgina Tib qonunlari va yana yuzlab asarlar yozgandagina emas, bir inson bor umri davomida nimalarga qodir ekanini, qanchalik ezgulik va foyda keltira olishini-hozirgi va kelajak avlodlar uchun ham amalda ko'rsatib bergan buyuk shaxsdir. Peshku tumanidagi yana bir qadimiy qismi bu Afshina yani hozirgi Afshona qishlog'idir. Ushbu qishloq katta shoiristonga va mustahkam hisorga ega hisoblanadi. U yerda har haftada bir kun bozor bo'lgan. Bu qishloqdagi ekin yerlari va biyobonlari to'liq madrasa hisobiga vaqf qilingan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda Qutayba ibn Muslim u joyda masjidini jo'me bino qilganligi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Yana bir ma'lumotlarga qaraganda Muhammad ibn Vose ismli shaxs ham bir masjid qurdirgan. Afshonada qanday duo qilinsa ham ijobat bo'ladigan joy sifatida qaralgan.

Buxoro shahridan chiqqan odamlar aynan Afshona qishlog'iga borganlar va uni tabarruk qishloq deb hisoblaganlar. Afshona qishlog'i faqatgina bozori va masjidlari bilan nom chiqargan desak xato bo'ladi. Chunki, bu yerda dunyo ilm faniga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino tug'ilgan yurt. Alloma 973-yilda Buxoro shahrini Peshku tumanidagi ziyoli oilda dunyoga keladi. Ushbu alloma Buxoroda yaxshi ta'lim oladi va davlat hukmdori Nuh II ni davolaydi. Shu voqeadan so'ng Ibn Sino saroy kutubxonasiidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Ibn sino o'z davrida juda ko'plab kasallarni davolagan hamda dunyo tibbiyotiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan. Ushbu allomani mag'rib yani g'arbda Avitsena nomi bilan insonlar tanishadi. Peshku tumanidagi Afsahona qishlog'i shunday buyuk insonlar tug'ilgan yurt sifatida dunyoga mashhur hisoblanadi. Abu Ali Ibn Sino yashagan davr asosan islom dini O'rta Osiyoda eng barq urib gullagan davr edi. Bu davrda asosan mustaqil davlatlar taskil topgan davr ham hisoblanadi. Buxoro shahri va Peshku tumani bu davrda Somoniylar davlati taasarufida edi.

Keyinchalik ham Buxoro shahrini ko'plab istilochilar bosib oldilar. Ammo Buxoro shahri doim o'zini tiklay oldi. Ayniqsa, sho'rolar davrida Buxoro shahrida va uning qishloqlari juda ham ko'p azob chekdilar. Aynan, shu davr Peshku tumanining dastlabki tashkil etilgan davri ham hisoblanadi. 1949-1950-yillarda ikkinchi jahon urushi davridagi azob-uqubatlarni yengib o'tish davri edi. Aynan shu davrda Buxoro hududidagi Vobkent tumanida 86 ta jamoa xo'jaligi bo'lib hozirgi Peshku tumani ham uning tarkibida edi. Katta rayonlarni ixchamlashtirish iqtisodiy ravnaq yo'lini qayta belgilash uchun O'zbekiston Komunistik Partiyasi Markaziy Komiteti respublika Oliy Soveti Prezidumi va Ministirlar Soveti muhim qarorlar qabul qildilar.

Shunday muhim qarorlardan biri bu O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidumining farmoniga asosan 1950-yil 15-aprelda birinchi marta Peshku tumanining tashkil etilishi bo'ldi.

Yangi tuman Vobkent tumani tarkibidan 47 ta jamoa xo'jaligi hamda 1-Peshku va 2-Peshku MTS'lari bilan ajralib chiqdi. Peshku tumani tarkibiy idora, tashkilot hamda muassasalari tuzish yo'lga qo'yib o'tkazilgach, plenum va kengashda tuman raxbarlari saylandi. Xususan Shofirkondan maxsus keltirilgan partiya-sovet xodimi Abduraxmon Rasulov birinchi kotib, Fayzullo To'xtayev va Temur Ro'ziyevlar raykom kotiblari qilib saylandilar.

SSSR boshqa tumanlarda qilgani kabi Peshku tumanida ham gazetalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya boshladi. Jumladan, aynan shu ishda jonbozlik ko'rsatgan vobkentlik Fayzullo Jo'rayev 1953-yilda "Komunizm uchun" gazetasini chiqarishda zo'r tashkilotchilik ko'rsatdi va 1955-yil iyuligacha shu gazetaning bosh muharriri bo'lib ishladi. 1955-yil iyulidan e'tiboran Toshkent oliy partiya maktabini tamomlab qaytgan Lutfullo Ismatov gazeta bosh muharrirligiga saylandi. Sovetlar davrida markaziy shifoxona Yangibozorda tashkil etildi va Maryam Idrisova so'ngra Hamid Habibov bosh shifokor bo'lib xizmat qildilar. Peshku tumanida dastlabki yo'l qurilish ishlari 1950-1959-yillarda amalga oshirildi. Tumanda birinchi marta DRCU (yo'l remont-qurilish uchastkasi) tashkil etildi. Unga Qilich Normurtodov boshchilik qildi. O'sha davrlarda 12 km umumiy tuproq yo'llari bo'lib, 1959-yilgacha, umumiy yo'l 33 km yetkazildi. Shu yo'ldan 11 km yo'lga shag'al tashlandi, 22 km yo'l tuproq holicha qoldirildi. Shuni ham aytib o'tish joizki, Peshku tumaning rivojlanishida tumanda yetishib chiqan jonkuyar mutaxassislarining borligi ham katta rol o'ynaydi. Peshku tumanining nafaqat qadimiy, balki zamonaviy ipakchilik tarixi ham nihoyatda boydir. Bu sohaning ilmiy poydevorini qurgan eng yirik siymolardan biri — qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, asli peshkulik bo'lgan olim Tolib G'oyibovdir. U 1943-yilda Ibn Sino nomli jamoa xo'jaligining Qaxat qishlog'ida tug'ilib, butun umrini ipakchilik ilmigina bag'ishladi.

Olimning bosib o'tgan yo'li Peshku va Buxoro ipakchilik salohiyatini ilmiy asoslab beradi: 1962–1970-yillar. Buxoro ipak qurti zavodida agronomlikdan tortib, Romitan tuman pillachilik idorasida bosh agronomlikkacha bo'lgan mas'uliyatli yo'lni bosib o'tdi. 1978-yil 13-iyun: Olim ipak qurti parvarishidagi o'ta muhim mavzuda dissertatsiya yoqlab, fan nomzodi ilmiy darajasini oldi. Uning mehnati hukumat tomonidan yuqori baholanib, 1976-yilda 'Mehnatda o'rnak ko'rsatganligi uchun' medali va Respublika Oliy Kengashining 'Faxriy yorlig'i' bilan taqdirlangan. 1988-yil: Olim o'zining ixtirochilik qobiliyatini namoyon qilib "Pilladan chiqqan kapalaklarni kraxmallangan matolarda terish,, bo'yicha ixtirochilik diplomiga ega bo'ldi.

Bu esa Peshku ipakchiligining texnologik jihatdan ham ilg'or bo'lganini isbotlaydi. Tolib G'oyibovning amaliy xizmatlari bevosita Peshku tumani bilan bog'liq bo'lib, u tumanda 6 ta pilla quritish bazasini qurishda, 13 ta bazani esa qayta ta'mirlashda jonbozlik ko'rsatdi. Ayniqsa, Peshkuda ipak qurti bazasini yangidan qurib ishga tushirishi tumanning iqtisodiy mustahkamlanishiga katta hissa qo'shdi. Olimning xalqaro nufuzi 1992-yilning 7–14-sentyabr kunlari Xitoyning Urumchi shahrida o'tkazilgan nufuzli anjumanda yaqqol namoyon bo'ldi.

O'zbekiston delegatsiyasi a'zosi sifatida Tolib G'oyibov 'Buyuk ipak yo'li'ni qayta ochish va pillachilikning asil vatani bo'lmish Xitoy mutaxassislari bilan tajriba almashishda ishtirok etdi.

Bu fakt Peshku ipakchilik maktabining dunyo miqyosida tan olinganidan dalolat beradi.

Abu Ali ibn Sinoning daho vorislari xbugun nafaqat O'zbekiston, balki jahon fanining eng yuqori cho'qqilarini zabt etib kelmoqda. Peshkuning zamonaviy fan olamidagi 'og'ir vaznli' vakillari — Namoz Bobosafarov, Muhammad Hamroyev, Tolib G'oyibov va Qavmiddin Hamroyev kabi akademik gigantlar o'z sohalarining yo'nalishini belgilab bergan siymolardir.

Ularning ortidan kelayotgan Arab Salomov, Ismoil Fattoyev va Anvar Hamdamov kabi o'nlab fan nomzodlari Peshkuning intellektual brendini xalqaro darajaga olib chiqdi.

Tumanning haqiqiy yuksalish davri va ilmiy boshqaruvi deganda, bevosita Qavmiddin Jaloilovich Hamroyev siymosi ko'z oldimizga keladi. Uning hayot yo'li — muvaffaqiyatning real xaritasi: U 1954-yilda Ibn Sino maktabidan boshlangan parvozini 1960-yilda Samarqandda, keyinchalik esa 1965-yilda Moskva qishloq xo'jalik akademiyasida davom ettirdi. 1974-yilda u paxtachilikda inqilobiy ilmiy dissertatsiyani yoqlab, ilm-fanni amaliyotga bo'ysundirdi. Uning rahbarlik salohiyati 1978–1986-yillar oralig'ida Peshku tumani partiya qo'mitasining birinchi kotibi lavozimida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu davr Peshku uchun nafaqat boshqaruv, balki ilmiy asoslangan taraqqiyot davri bo'ldi. Hozirda u 'Varaxsha' davlat xo'jaligida turib, 'Dehqonchilikning yangi sistemasi' ustida ishlar ekan, Peshku ilmi hamon yosh va g'ayratli ekanini isbotlamoqda. Shu bilan birga, tuman madaniyatini yangi bosqichga olib chiqqan, 300 o'rinli yozgi kinoteatr va ma'naviyat maskanlarini bunyod etgan Saodat Ibrohimova kabi fidoyilarning mehnati Peshkuni nafaqat ilm, balki yuksak madaniyat markaziga aylantirdi. Oradan o'tgan yarim asrdan ziyod vaqt Peshku salohiyatini bir necha barobar yuksaltirdi. Bugun davlatimiz rahbarining bevosita e'tibori bilan tumandagi har bir tarixiy yodgorlik dunyo e'tirofiga sazovor bo'lmoqda.

Xususan: Investitsion sakrash: Buxoro viloyatidagi 800 dan ortiq madaniy meros ob'ektlarini, jumladan Peshkuning durdonalarini asrab qolish uchun ajratilgan 300 milliard so'm mablag' — bu 1960-yillarda qo'yilgan poydevorning bugungi mevasidir. Afshona — dunyo nigohida: O'sha paytda Ibn Sino nomi bilan atalgan jamoa xo'jaliklari bugun Prezidentimiz tashabbusi bilan 'Turizm shaharchasiga' aylanmoqda. Bu yerda YuNESKO ro'yxatiga kirgan obidalar va viloyatdagi 829 ta yodgorlikning (shundan 287 tasi ming yillik tarixga ega) bir qismisifatida Afshona o'zining global turistik brendini yaratmoqda. Peshku tumani nafaqat o'zining tarixiy-madaniy yodgorliklari, balki o'ziga xos ekoturistik salohiyati bilan ham mintaqada alohida ajralib turadi. Tumandagi 12 ta arxeologik va 12 ta me'moriy obida, xususan, mashhur Xuja Peshku ansambli ziyorat turizmining ustuni bo'lsa, Qoraqir ko'li va uning atrofidagi ekotizim hududning tabiiy boyligidir. Qoraqir ekologik-ovchilik markazi: Buxoro shahridan 40 km uzoqlikda joylashgan ushbu hudud nafaqat tuman, balki viloyat miqyosidagi yirik ekoturizm markazi hisoblanadi. Maydoni o'n ikki ming gektarni tashkil etuvchi ushbu ulkan hududda o'rmon va ovchilik xo'jaligi tashkilotilgan. Markaz "Bukhara Hunting" MChJ tomonidan boshqarilib, u yerda baliq ovi, professional ov hamda "yovvoyi" dam olishni xush ko'ruvchi sayyohlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Suv osti boyliklari vabaliqchilik turizmi: Qoraqir ko'li o'zining mazali va yirik baliqlari bilan mashhur. Manbalarga ko'ra, bu yerda baliqchilik turizmini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ko'l suvlarida zog'ora, oqqayroq, xumbosh, sudak va ilonbaliq kabi turlardan tashqari, qumli chuqurliklar qirol sanalgan — laqqa baliqlar ham ko'p uchraydi. Bu esa xorijiy sayyohlar uchun "sport baliq ovi" (Sport fishing) yo'nalishini yo'lga qo'yishda muhim resursdir.

Xulosa qilib shuni aytganda Peshku bu moziy kelajakni bog'lovchi ko'prik. Agar sayyoh buxoroda islom arxitekturasi ko'rsa, Peshkuda u inson taffakurning va davlat boshqaruv ildizlarini ko'radi. Uning turistik salohiyati faqat binolar bilan cheklanmaydi; Peshku — bu qadimiy shoyi yo'llari, tabobat sirlari va sahro nafasi birlashgan hudud.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan hudud.”Afshona “turizm klasteri kabi loyihalar tumani yaqin yillarda Buxoro viloyatining asosiy turistik drayverlarid biriga aylanish shubhasiz.

Peshku –bu nafaqat tuman ,balki O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasidagi o‘chmas imzosidir. Agar Buxoroni „Eski shahar” deb bilsak, Peshkuni Buxoroning „cheksiz imkoniyatlar sahrosi“ deb qabul qilishimiz kerak .

Foydalangan adabiyot

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an Narshaxiy .Buxoro tarixi .
2. (fors tilidan A.Rasulev tarjimasi).Toshkent .11. 15 bet
3. Xidir Murodov ,Yusuf Valiyev .Navqiron Peshku .Toshkent „Kamalak ‘’
4. 1Nashriyoti ,1994- yil 53.58.124.125.bet
5. B.D. Petrov .Ibn Sino (Avitsena)Alloma hayot va merosi ijodi 12.25.bet
6. „Peshku ovozi ‘’gazetasi .1979-yildan buyon chop etilmoqda .Tahririyat rahbari;
7. Hurmat Sharifovna Sharopova .1.2. bet